

## URUSH MAVZUSIDAGI ASARLARDA XARAKTER TALQINI VA OBRAZLAR OLAMI

**Asadova Shahnoza Vahobjon qizi**

*SamDU 2-kurs magistranti*

**Annatatsiya:** *badiiy adabiyotda urush mavzusidagi asarlarda davr muammolari, uning turli xususiyatlari, muhit, inson ziddiyatlari talqin etildi va etilmoqda. Urush mavzusidagi asarlarda ham, inson va uning o'rtasidagi kurashlar, ziddiyatlar bilan birgalikda, muhit va insonning urushdagi holatlari talqinetildi. Ammo istiqlol o'zbek adabiyotidagi urush mavzusidagi asarlarda mag'lublar g'oliblar mavjud emas, faqat inson fojialari mujassamlashganligini asoslashga intilgan.*

**Kalit so'zlar:** *inson, muhit, kurash, fojia, hayot, ruhiyat, xatakter.*

## НА ТЕМУ ВОЙНЫ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХАРАКТЕРОВ И МИР ОБРАЗОВ

**Асадова Шахнозы дочь Вахабджона**

*магистр 2-курса СамГУ*

**Аннотация:** *проблемы эпохи, ее различные особенности, окружающая среда, человеческие конфликты интерпретировались и интерпретируются в произведениях на тему войны в художественной литературе. В произведениях на тему войны наряду с борьбой и конфликтами между человеком и самим собой интерпретировались окружающая среда и условия жизни человека на войне. Однако в произведениях на тему войны в независимой узбекской литературе проигравшие пытались обосновать, что победителей не бывает, а есть только человеческие трагедии.*

**Ключевые слова:** *человек, среда, борьба, трагедия, жизнь, психика, характер.*

## IN WORKS ON THE SUBJECT OF WAR CHARACTER INTERPRETATION AND WORLD OF IMAGES

**Asadova Shahnoza Vahabjon's daughter**

*2nd year graduate student of SamGU*

**Annotation:** *the problems of the era, its various features, environment, and human conflicts were and are being interpreted in works on the subject of war in fiction. In the works on the subject of war, together with the struggles and conflicts between man and himself, the environment and the conditions of man in the war were interpreted. However, in the works on the subject of war in the independent Uzbek literature, the losers tried to justify that there are no winners, but only human tragedies.*

**Key words:** *person, environment, struggle, tragedy, life, mentality, character*

Uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan insoniyat taraqqiyoti davomida, olamni anglash yo‘lini izladi, bu esa badiiyatda keyinchalik o‘z ifodasini topdi. Donishmandlarning ta’kidlashlaricha, inson hayotning past-u balandini, oq-u qorasini anglab yetishi uchun uning butun umri kamlik qilar ekan. Mazkur haqiqat barcha uchun ham bir xil bo‘lishi mumkinmi, degan savol tug‘iladi. Bu savolga javobni ijodkorlarning yaratgan asarlaridan topish mumkin. Zero, har qanday badiiy asar hayotning in’ikosi, unda bir qatra bo‘lsa ham, albatta, hayot haqiqati yotadi [1, 44-bet].

Afg‘on urushining ikki yillik talotumlarini bevosita boshidan o‘tkazgan adib Qo‘chqor Norqobil o‘zining “Daryo ortidagi yig‘i” qissasi orqali inson turmushning achchiq-chuchugini totishi uchun bir necha yil kifoya qilishi mumkinligini teran ifodalab bergan. Aksariyat hollarda urush mavzusini yoritishga bag‘ishlangan asarlarni o‘qiyotganda kitobxonlar urushning qay tarzda olib borilishi, janglardagi ur-surlarga e’tibor qaratishadi.

Aslida, har bir yozuvchining ushbu mavzuga murojaat qilishidan maqsadi urushning inson ruhiyatidagi evrilishlarga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlash, uning salbiy oqibatlarini yaqqol namoyon etishdan iboratdir. Ayni shu maqsadni Qo‘chqor Norqobilning “Daryo ortidagi yig‘i” qissasida kuzatish mumkin.

Asarning bosh qahramoni – muallifning o‘zi bo‘lib, o‘zi qatori urushga yangi kelgan askarlar kabi janglarga chiqishga, qahramonlik ko‘rsatishga oshiqar edi, urushning qanday olib borilishini ko‘rishga qiziqar edi: “Har kuni oshxonada idish-tovoq yuvish-u omborxonadan oziq-ovqat tashishga boraverishdan ko‘ra xavotir-u qiziqish aralash haqiqiy jangga borishni afzal ko‘rayotgandik. Kim biladi, inson hamisha o‘z oldida sodir-u muqarrar voqealarni ko‘rishga shoshilaverar?” [1,6-bet]. Ushbu qissada qahramon afg‘on urushiga endi jalb etilgan, urushning achchiq sinovlaridan bexabar, ishonuvchan, rahmdil yosh yigit sifatida gavdalanadi.

Qahramon urushning birinchi shafqatsizligini zindonda saqlanayotgan “dux”(sobiq sho‘ro hukumatiga qarshi bo‘lgan mahalliy aholi vakillari sobiq sovet askarlari tomonidan shunday nom bilan atalgan)ga nisbatan qo‘llanilgan jazoda ko‘rdi. Mahbus hech qanday aybi yo‘q ekanligini tan olgan bo‘lsa ham unga turli qiynoqlar solayotganliklari uni hayron qoldiradi. Dushmanning ko‘p yolg‘onlarining guvohi bo‘lgan askarlar uchun mahbus eng xatarli odam bo‘lib ko‘rinadi. Yosh askar, nahotki, inson shunchalik shafqatsiz, odamlar bir-biriga shuncha azob berishi mumkinmi, deb o‘ylaydi. Ikkinchi dahshatni u Bagramdagi talotumda ko‘rdi. Ko‘z oldida minalashtirilgan hududda jismi tilka pora bo‘layotgan askar o‘rtoqlarini ko‘rgach, ruhan azob chekadi:

“Eng yomoni ruhan zarba yemoqda edik. Hech qanaqa otishmasiz, og‘ir ahvolda qoldik. Xuddi ko‘zi ko‘r odam singari talmovsirash judayam ayanchli edi. Bir qadam xato yursak, portlaymiz. Tanamiz tilka-pora bo‘ladi, naslimiz quriydi. Bu – sharmandali urushning yana bir sharmandali ko‘rinishi, inson hayotining sariq chaqaga ham arzimaslighi, xo‘rlik ustiga haqorat muhrining bosilishi edi” [2,13-bet]. Aynan mana shunday ko‘rgiliklarning guvohi bo‘lgach, uning qalbida beshafqatlik, o‘z hayoti uchun kurash tuyg‘usi vujudga keladi.

“Allaqanday, hali senga noma’lum, lekin bo‘lishi muqarrar vahima hokim. Diling betaskin. Qalbingda g‘ulu. Xavotir har daqiqa xuruj qilaveradi. Bo‘lajak xavf-u xatar oldida shaylanish naqadar og‘ir kechadi” [2,14-bet]. Asardan olingan ushbu parchadan ko‘rinib turibdiki, qissa qahramonidagi urushga bo‘lgan avvalgi qiziqish so‘nib, uning o‘rnini xavotir egallaydi. Bu xavotir faqat o‘z jonini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqish emas, balki qahramonlik, jasurlik bilan emas, haqoratli tarzda begona yurtlarda halok bo‘lishdan, oilasi, ota-onasidan bevaqt ajrab qolish hissi edi. Askarning jang, qon, talafotdan iborat kunlari uning tinchligini buzardi. Hatto tunlari tushida ham o‘z-o‘zi bilan kurash olib borardi, alahsirab chiqar edi:

“Mashina ichi go‘yo qonga liq to‘lgan-u, unda mening xayolimdan elas-elas o‘tayotgan ota-onam, ukalarim suzib yurganday. Men esa qopqa tepasida turib ularni kuzatayapman. Ana otam, keyin ukam sho‘ng‘iyotir. Qonli girdob uzra onamning chehrasini ko‘rib qolaman. Ana u ham... ko‘rinmay ketdi... Tag‘in girdob yuziga chiqdi. Sochlari qip-qizil... –Ona-jooon!!! O-o-o!!!” [2,18-bet].

Insonning hayotdagi o‘rni, uni inson deb tan olinishiga imkon beradigan tuyg‘ulardan biri va asosiysi g‘ururdir. Bu fazilatning yo‘qligi esa insoniy illatlarning urchishiga sharoit va muhit rolini o‘taydi. G‘ururi yo‘q misoli temir odamga o‘xshaydi. O‘zi qilishi lozim bo‘lgan ishni, buyurilgan yumushni qoyilmaqom qilib bajaradi. Evaziga hech narsa so‘ramaydi.

Temir odam uchun zaryad kifoya qilgandek, g‘ururi yo‘q odam uchun esa tirikchiligi o‘tsa bo‘ldi. Insonni o‘zini tutolmaydigan holatga olib keladigan narsa uning tuyg‘ularining toptalishi va adolatsizlik qilinishidir [3, 92-bet]. Hali yosh bo‘la turib ko‘plab yo‘qotishlar, azoblarni ko‘rgandan so‘ng, u insonlar bir-birlarining qadrlariga yetishlari kerakligini anglaydi. Chorikordagi jangda Rinat va harbiy vrachlar bilan yaralanganlarni Bagramdagi tibbiy punktga olib borish topshirig‘ini bajaradi. Ushbu jangdagi kuchli yo‘qotishlar, og‘ir kechgan jang natijasida asar qahramonining ahvoli og‘irlashadi. Do‘sti Rinatning qistovi bilan harbiy gospitalga davolanish uchun boradi.

Asarda badiiy konflikt shu darajada kuchayib boradiki, uni u yerdagi holat aslo qoniqtirmaydi. Palatada urushda bir yarim yil xizmat qilgan mushtumzo‘r Andrey va uning buyruqlarini so‘zsiz bajaruvchi to‘rt askar bor edi. Qissa qahramonini ajablantirgan holat jangchilarning urushda jang qilishdan ko‘ra bir zo‘ravonning buyruqlarini bajarishni afzal ko‘rishlari edi [4, 1012-bet]. Ayniqsa, u nimjon va irodasi sust yigit Gavrilovga achinadi. U kuni bilan palataning pollarini tozalash vazifasini bajarar edi. Gavrilov hech qanday kasal bo‘lmasa ham xizmat muddati tugagunga qadar jangda qatnashib halok bo‘lmaslik uchun shu yerda kun ko‘rishni ma‘qul ko‘radi. Bu yo‘lda esa, u va unga o‘xshaganlar har qanday yumushlarni bajarishga tayyordirlar. Lekin Gavrilov mutlaqo mute odam emas. Andrey va uning yordamchilari asar qahramoniga o‘z hukmlarini o‘tkazmoqchi bo‘lganlarida unga yordam beradi. Asarning asosiy qahramoni – askar yigit g‘ururini poymol qilmay, ularga qarshi kurashadi. O‘z vijdoni, g‘ururini saqlab qoladi. Ularga o‘xshab gospitalda yolg‘on hayot bilan kun ko‘rishdan ko‘ra mardlarcha jangga chiqishni afzal ko‘radi. Ko‘rinib turardiki, u bu yerda sog‘ayish o‘rniga, aksincha, tinchligini yo‘qotadi. Kasalxonadagi yolg‘onchilik, zo‘ravonlik, betartiblik uning sog‘ligini tiklashga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini bilib, bosh vrachdan harbiy qismga qaytishga ruxsat so‘raydi.

“Kulib tur, azizim” asarining bosh qahramoni – shoir, afg‘on urushi qatnashchisi, urushda olgan jarohati, keyinchalik turg‘unlik davridagi nohaqliklarga qarshi kurashish jarayonida kechgan ko‘pdan-ko‘p qiyinchiliklar, dilgirliklar tufayli og‘ir ahvolda kasalxonaga tushib qoladi. Shifokorlar uning hayotini saqlab qolish uchun bor imkoniyatini ishga soladilar. Ammo asosiy gap – shoirning qay ahvolda shifoxonaga tushib, qanday sog‘ayganida emas, balki shu vaqt mobaynida uning ruhiyati, ong-u shuurida yuz bergan o‘zgarishlardadir.

Sho‘ro davri siyosati tufayli afg‘on yurtida urush boshlanadi. Bu urushda ittifoq davlatlarining barchasidan harbiy xizmatga chaqirilgan yigitlar jalb qilinadi. Shoir ham shundaylardan biri, afg‘on urushi qatnashchisi. Shifoxonada davolanish jarayonida uning o‘y-xayolini ana shu urush fojialari, jang maydonida kechgan xunrezlik masalalari egallab oladi [5, 80-bet]. Ko‘zini yumgan hamon bu dahshatli manzaralar shoirni tinch qo‘ymaydi, u alahsiray boshlaydi:

“Kazarmada ikki kun dong qotib uxladim. Shkafimda jangga chiqqan kezlar beriladigan “quruq ovqat” ... bor edi. Ovqatlanaman, uxlayman. Ayqash-uyqash manzaralar paydo bo‘ladi. Nina Grigorevnaning qon sizgan chehrasi, o‘sha o‘lik askarlar qiyofasi, yaralangan mayor, yig‘layotgan leytenant, son-sanoqsiz texnikalar, qurol o‘qtalغان, sallali, mahalliy kiyimdagi afg‘onlar xayolimdan bir-bir o‘tar, uyqu aralash kimlar bilandir gaplashardim. Bu, judayam og‘ir hol edi...” [2, 122-123-betlar].

Qissada qahramon xarakteri, hayotiy prinsiplarini yaqqol namoyon etuvchi epizodlar juda ko‘p. Asar voqealari qahramon o‘y-xayollari orqali beriladi. Bu o‘ylar tartibsiz kechadi. Ayni shu usul asar qahramonining ichki tuyg‘ularini, qalb evrilishlarini, uning ruhiy holatini ishonarli, haqqoniy tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoirning o‘zi ta‘kidlab o‘tganidek, u qaysar edi. U urushdan qaytgach, faqat o‘z tinchligini o‘ylab yasholmaydi. Bu kabi talqinlar insonni o‘zligini anglashga bevosita xizmat qilganligini, tipiklashtirish asosida ijodkor yuzaga chiqargan.

Adabiyotshunos olim U.To‘ychiyev qayd etganidek: “Tipiklik belgisi detallar, xarakterlar, sharoitlar, joylar va hodisalarga nisbatan qo‘llaniladi” [6, 365-bet].

Badiiy asardagi talqinlarning zamirida vijdotsizlik, ikkiyuzlamachilik, iroda va o‘z yashash prinsipiga ega bo‘lmagan qo‘g‘irchoq odamlar fojialarini qiyoslaydi va ularni fosh qiladi. Badiiy obrazda yaxshilik tamoyillari mavjud bo‘lsa bu xususiyatlar talqin etiladi. Televideniya teleboshlovchi bo‘lib ishlayotgan shoir xalqning dardini o‘z dardidek qabul qilib, kishilar manfaatini ko‘zlovchi, jamiyatda mavjud kamchilik va nuqsonlarni fosh qiluvchi obraz sifatida faoliyat yuritib, televideniya ko‘rsatuvlarida ham haq gapni aytishdan qochmasdi: “Hayotni boricha hikoya qilaman, shundayligicha ko‘rsataman, ekranning vazifasi u, unga tikilib turgan millionlab nigohlarga cho‘p suqolmayman, ekranda aldash shu xalqqa nisbatan xiyonatdir”, deb o‘ylardi” [2, 87-bet].

Bir kuni shoirdan betob bo‘lgan jurnalist o‘rniga jonli efirda intervyu olishni iltimos qilishadi. Suhbatda jurnalist ham, mehmon ham muammo va kamchiliklar haqida haqqoniy fikr yuritishadi, biroq qissa qahramoni shu harakatlari uchun rahbarlardan ogohlantirish oladi. Yozuvchi qissada nafaqat urush fojiasi, balki tinchlik davridagi qo‘rqoqlik, nafsga mutelik,

ikkiyuzlamachilik ham jamiyat rivoji uchun to‘siq ekanini yorqin misollar yordamida ko‘rsatib bera olgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nasirov, A. N. (2023). Odil Yoqubovning “Qaydasan Moriko” qissasida pesaj va xarakter talqini // *Ustozlar uchun*. 15(1), 40-47.
2. Норқобил Қ. Қуёшни ким уйғотади? // *Қиссалар, ҳикоялар*. – Тошкент: Шарқ, 2007.
3. Normamatovich, N. A. (2023). Artistic thought in the process of globalization and logical consistency. *international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 12(01), 90-94.
4. Nasirov, N. A. (2021). The history of literary translation from uzbek into english. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1011-1022.
5. Nasirov, A. (2023). Erkin A‘zam ijodining o‘ziga xosliklari haqid // *Ustozlar uchun*. 15(1), 78-84.
6. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. Ўқув кўлланма. – Тошкент, 2011. – 508 бет.
7. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 352-354.
8. Mukhammadalievna, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(4).
9. Shavkatovna, T. M. (2023). BO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(3), 6-8.
10. Shavkatovna, T. M. (2021, June). THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER. In *Archive of Conferences* (pp. 22-24).
13. Normamatovich, N. A. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE*, 12(586-571).
11. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov’s novels. *Academica: An Internatioonal multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF*, 7, 498-501.
12. NASIROV, N. A. (2019). THE TRANSLATION PROBLEMS OF UTKIR KHOSHIMOV’S WORKS INTO ENGLISH. *Иностранные языки в Узбекистане*,(3), 133-141.

13. Ahmadjonovna, K. M. (2024, February). XORIJIY TILNI OSON VA QIZIQARLI O‘RGANISH TO‘G‘RISIDA. In Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium) (Vol. 4, pp. 20-23).

14. Xusanova, M. (2023). SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR. Farg'ona davlat universiteti, (1), 163-163.

15. A'zamjonovna, X. S., & Azimidin, N. (2023). ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIY KONFLIKT. Ustozlar uchun, 15(1), 72-77.

16. Nasirov, A. (2012). Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. Tashkent, "Fan" publishing house, 160.